



“O‘ZBEK ADABIYOTSHUNOSLIGINING DOLZARB MASALALARI”

mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya



Digital object
identifier



Google
Scholar



OpenAIRE

**“O‘ZBEK ADABIYOTSHUNOSLIGINING DOLZARB MASALALARI”
MAVZUSIDA XALQARO ILMIY-NAZARIY OFLAYN-ONLAYN ANJUMANI**

PROFESSOR RAHMATULLA BARAKAYEVNING 70 YILLIGI

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI
O‘ZBEK TILI, ADABIYOTI VA FOLKLORI INSTITUTI**

Professor
RAHMATULLA BARAKAYEVNING
70 yilligiga bag‘ishlangan

**O‘ZBEK ADABIYOTSHUNOSLIGINING DOLZARB
MASALALARI**
mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya
MATERIALLARI TO‘PLAMI

Toshkent, O‘zbekiston

COLLECTION OF MATERIALS
from the international scientific and practical conference
**THE CURRENT ISSUES OF UZBEK LITERARY
CRITICISM**

Tashkent, Uzbekistan

СБОРНИК МАТЕРИАЛОВ
международной научно-практической конференции
**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ УЗБЕКСКОЙ
ЛИТЕРАТУРНОЙ КРИТИКИ**

Ташкент, Узбекистан

YŷK 821.512.133.09(08)

КБК 83.3(50)

“O‘zbek adabiyotshunosligining dolzarb masalalari” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari. Toshkent: 2024 - y., – 786 b.

Ushbu to‘plamga O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi katta ilmiy xodimi, professor Rahmatulla Barakayev tavalludining 70 yilligiga bag‘ishlab O‘zR Fanlar akademiyasi O‘zbek tili, adabiyoti va folklori institutida o‘tkazayotgan “O‘zbek adabiyotshunosligining dolzarb masalalari” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari kiritilgan.

Maqola mazmuni uchun mualliflar mas‘ul

Mas‘ul muharrirlar
Nizomiddin MAHMUDOV,
Jabbor ESHONQULOV

To‘plab nashrga tayyorlovchi
Farxod KENJAYEV

Taqrizchilar
Hamidulla BOLTABOYEV,
Filologiya fanlari doktori, professor;
Dilmurod QURANOV,
Filologiya fanlari doktori, professor.

O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi O‘zbek tili, adabiyoti va folklori instituti XX asr o‘zbek adabiyoti va hozirgi adabiy jarayon bo‘limining 2024-yil 10-yanvar kuni bo‘lib o‘tgan 2-sonli majlis qarori bilan o‘tkazishga tavsiya qilingan.

ISBN 978-9910-9258-7-0

© O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi
O‘zbek tili, adabiyoti va folklori instituti, 2024

KONFERENSIYA TAHRIR HAY’ATI

Ulug‘bek HAMDAMOV	Filologiya fanlari doktori, professor O‘zR FA O‘zbek tili, adabiyoti va folklori instituti XX asr o‘zbek adabiyoti va hozirgi adabiy jarayon bo‘limi mudiri
Maqsud ASADOV	Filologiya fanlari doktori, professor O‘zR FA O‘zbek tili, adabiyoti va folklori instituti ilmiy ishlar bo‘yicha direktor o‘rinbosari
Suvon MELIYEV	Filologiya fanlari doktori O‘zR FA O‘zbek tili, adabiyoti va folklori instituti Adabiyoti nazariyasi va adabiy aloqalar bo‘limi mudiri
Shomirza TURDIMOV	Filologiya fanlari doktori, professor O‘zR FA O‘zbek tili, adabiyoti va folklori instituti Folklor bo‘limi mudiri
Zebo QOBILOVA	Qo‘qon davlat pedagogika universiteti professori, filologiya fanlari
Bashorat JAMILOVA	Buxoro davlat universiteti professori, filologiya fanlari doktori
Zuhriddin ISOMIDDINOV	O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan madaniyat xodimi, Chingiz Aytmatov xalqaro akademiyasining faxriy a‘zosi, filologiya fanlari nomzodi
Ergash OCHILOV	Filologiya fanlari nomzodi O‘zR FA O‘zbek tili, adabiyoti va folklori instituti katta ilmiy xodimi
Sanobar TO‘LAGANOVA	Filologiya fanlari doktori O‘zR FA O‘zbek tili, adabiyoti va folklori instituti yetakchi ilmiy xodimi
Marhabo QO‘CHQOROVA	Filologiya fanlari doktori O‘zR FA O‘zbek tili, adabiyoti va folklori instituti yetakchi ilmiy xodimi

PROFESSOR RAHMATULLA BARAKAYEVNING 70 YILLIGI

	USTOZ RAHMATULLA BARAKAYEVGA SHOGIRD TABRIGI Naima Anvarova EHTIROM VA E‘TIROF Erpo‘lat BAXT USTOZ RAHMATULLA BARAKAYEVGA DURPOSHSHO USTOZ RAHMATULLA BARAKAYEVGA BAG‘ISHLAYMAN! Xursandbek To‘liboyev	
JADID ADABIYOTINI O‘RGANISH MASALALARI		
26.	AVLONIY ZIYOSI Bahodir KARIM	110-114
27.	“ABULFAYZXON” TRAGEDIYASINING YARATILISH TARIXI VA TAQDIRI Ilhom G‘aniyev	115-119
28.	JADID MA‘RIFATPARVARLARI FAOLIYATINING YANGI O‘ZBEK ADABIYOTI TARAQQIYOTIGA TA‘SIRI Abduhamid Xolmurodov	120-123
29.	ILM-U ZIYO JADIDLAR ZIKRIDA Mo‘minjon Siddiqov	124-129
30.	JADIDCHILIK HARAKATIGA QADAR TURKISTON MUSTAMLAKASIDAGI TA‘LIM TIZIMINING ILMY-MA‘NAVIY, IJTIMOYIY HOLATI Amonov Ulug‘murod Sultonovich	130-134
31.	ABDULLA AVLONIY HIKOYATLARINING O‘ZIGA XOSLIGI Fozilova Odina Nabieva, Shohidaxon Teshaboeva	135-139
32.	MOLLANASRADDINCHILAR VA JADIDLAR PUBLITSISTIKASIDA YANGI MADANIYAT VA MILLIY TIL PROBLEMI JALIL MAMMADGULIZODA VA MAHMUDXO‘JA BEHBUDIY Ilhoma Sultonova	140-147
33.	USMON NOSIR IJODI VA HOZIRGI ADABIY JARAYON Gulshoda Jo‘nolatova	148-152
34.	MILLAT OYDINLARI Mamaraximova Nigora Mahmudjonovna	153-156
35.	JADIDLAR SHOIRLARI MAKTAB XUSUSIDA Sherzod Xo‘jamberdiyev	157-163
36.	ABDULHAMID CHO‘LPON MEROSINING HOZIRGI KUNDAGI AHAMIYATI Utanova Vaziraxon Maxmudjon qizi	164-167
37.	MA‘SUMA ROMANI HAQIDA Jo‘raqulov Sardor O‘ktam o‘g‘li	168-171
O‘ZBEK BOLALAR ADABIYOTI MUAMMOLARI		
38.	КИШИ АСЛЫ БИЛМӘК ТИЛӘСӘ АЧУК... Boqijon TO‘XLIYEV	172-176
39.	BADIIY IJODDA INDIVIDUALLIK MOTIVATSIYASI (Anvar Obidjon portretiga chizgilar) Safo Matchonov	177-183
40.	ДУХОВНЫЙ ДВОЙНИК ЧЕЛОВЕКА Муминов Файзулла Абдуллаевич	184-188
41.	BOLALAR QISSALARIDA AVTOBIOGRAFIYAM VA BADIY KONSEPSIYA Jamilova Bashorat Sattorovna	189-195
42.	BOLALARGA BAG‘ISHLAB YOZILGAN SHE‘RLAR XUSUSIDA (Shuhrat ijodi misolida) Soatova Nodira Isomitdinovna	196-204
43.	BUGUNGI BOLALAR ADABIYOTI MUAMMOLARI: MULOHAZA VA TAKLIFLAR Erpo‘lat Baxt	205-212
44.	BOLALAR PUBLITSISTIKASI RIVOJIDA SAFAR BARNOYEVNING O‘RNI Hamida Nusratova Cho‘liboyevna	213-216
45.	ANVAR OBIDJON HIKOYALARINING USLUBIY XUSUSIYATLARI Fozilova Odina Nabiyevna	217-219

**“O‘ZBEK ADABIYOTSHUNOSLIGINING DOLZARB MASALALARI”
MAVZUSIDA XALQARO ILMIY-NAZARIY OFLAYN-ONLAYN ANJUMANI**

PROFESSOR RAHMATULLA BARAKAYEVNING 70 YILLIGI

46.	“QASOSKORNING OLTIN BOSHI” – TARIXIY-SARGUZASHT ROMAN SIFATIDA Lutfullayev Jahongir Amirovich	220-226
47.	TOJIKISTONDA O‘ZBEK BOLALAR SHE‘RIYATI TARAQQIYOTI (Shoir Sultonmurod Hojiboyev ijodi misolida) Sattorov O‘ktamali Abbosovich	227-237
48.	BOLALAR BILAN BOG‘LIQ IRIMLARNING DIDAKTIK XUSUSIYATLARIGA DOIR Nasiba Tursunova	238-241
49.	ZAMONAVIY BOLALAR NASHRLARIDA SARLAVHANING PSIXOLINGVISTIK ASPEKTI VA ROLI Nargiza Abdukaxarovna Mirzayeva	242-245
50.	KICHIKLAR ADABIYOTINING KATTA OLIMI Gulnoza Abdullayeva Voxidjonovna	246-251
51.	OSKAR UAYLDNING “BAXTLI SHAHZODA” ASARINI ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA O‘QITISH METODIKASI Elboyeva Mahliyo Polvonquli qizi	252-256
52.	O‘ZBEK BOLALAR SHE‘RIYATIDA YUMORNING AN‘ANAVIYLIGI VA TARAQQIYOTXUSUSIYATLARI Qobilova Aziza Ahrorovna	257-262
53.	SHOYIM BO‘TAYEV HIKOYALARIDA XARAKTERLAR TASVIRI Muydinov Muhammadzoiir Zafarjon o‘g‘li	263-268
54.	ИЗ ИСТОРИИ ПЕРЕВОДА УЗБЕКСКОЙ ДЕТСКОЙ ПРОЗЫ НА РУССКИЙ ЯЗЫК Шаропова Нафиса Бахшилло кизи	269-274
55.	O‘QUVCHILAR NUTQINI O‘STIRISHDA BOLALAR ADABIYOTINING AHAMIYATI Gulnoza Xasanova Inamjanovna	275-277
56.	UMUMIY O‘RTA TA‘LIMNING RUSIYZABON BOSHLANG‘ICH SINFLARIDA BOLALAR ADABIYOTINING O‘QITILISH MASALALARI Klebleeva Guzal Davlyatovna	278-280
O‘ZBEK ADABIYOTI: TADQIQ VA TALQIN		
57.	TOG‘AY MUROD QISSALARIDA ESTETIK IDEAL TALQINI Sanobar To‘laganova	281-286
58.	MUHAMMAD RAHMON SHE‘RIYATIGA BIR NAZAR yoxud SHOIRNING BADIY FOLKLORIZM YARATISH MAHORATI Marhabo Qo‘chqorova Xudoyberganovna	287-293
59.	ABDULLA ORIPOVNING QASIDANAVISLIK MAHORATINI O‘RGANISHGA DOIR (Шоирнинг “Ўзбекистон” қасидаси мисолида) Файзуллоев Бахтиёр Бобожонович	294-302
60.	SHE‘RIYATDA TURNA OBRAZI (Omon Matjon she‘rlari misolida) Pirnazarova Manzura Matnazarovna	303-306
61.	“SAODAT SOHILI” QISSASIDA BADIY TRAGIZM Karimova Yulduz Akulovna	307-316
62.	“USMON AZIMNING “ADOLAT FASLI” TARIXIY DRAMASIDA ADOLATPARVARLIK IJTIMOY ESTETIK IDEALI Atadjanov G‘ulomjon To‘xtaboevich	317-319
63.	ABDUQAYUM YO‘LDOSH ASARLARIDA MAKON VA ZAMONNING BADIY AHAMIYATI Z. Teshaboyeva	320-327
64.	“OTCHOPAR YOXUD O‘N UCHINCHI UY” QISSASIDA AN‘ANA VA VORISIYLIK Farxod Nizomov	328-332
65.	TIL VA MAHORAT (DILMUROD QURONOV ASASRLARI MISOLIDA) Qodirov Abdulazizbek Luqmonjon o‘g‘li	333-337
66.	SHAVKAT RAHMON G‘OYAVIY-ESTETIK QARASHLARI Aliyeva Orzigul Zokir qizi	338-343
67.	LUQMON BO‘RIXONNING “JAZIRAMADAGI ODAMLAR” ROMANIDA MAHALLIY KOLORIT Turdiyeva Yulduz	344-347

Вывод. Узбекистан должен научиться, во-первых, пользоваться телефоном, во-вторых, уметь нейтрализовать его отрицательное влияние на общение в семье, обществе и, самое главное, на систему образования. Как показывает повседневная вузовская жизнь, контрактное обучение и мобильные телефоны не дают возможности полноценно готовить высококвалифицированных специалистов, без которых в информационную эпоху Узбекистан может задохнуться.

**BOLALAR QISSALARIDA AVTOBIOGRAFIK VA BADIY
KONSEPSIYA**

Jamilova Bashorat Sattorovna
*filologiya fanlari doktori, professor,
Buxoro davlat universiteti*
Tel: 91- 406- 43- 28

***Annotatsiya:** Maqolada A.Obidjonning “Ajnasi bor yo‘llar” va “Oddiy ayriliq haqida ertak” asarlarining badiiy-kompozitsion xususiyatlari, ifoda usullari, g‘oyaviy-mavzuviy, estetik vazifasi haqida fikr yuritilgan.*

***Kalit so‘zlar:** avtobiografizm, biografizm, syujet, sinkretik, qissa, roman, evrilish, poetik tafakkur, tarixiy-biografik.*

Har bir davr ijodkorlari tarix manzaralarini turli rang va tasvirda, shakl va mazmunda talqin va tabdil etadilar: tamsiliy hikoyalar, badia, xotira, qissa va roman janridagi bitiklarning aksariyati ham aslida asar mualliflarining turli davrlarda boshidan kechirgan, ko‘rgan, eshitgan yoki anglagan hayotiy, ba‘zan xayoliy haqiqatlari ifodasidir. Shu sababli ayrim adabiy janrlar kitobxonda badiiy-estetik zavq berish barobarida ijtimoiy fikr, ma‘naviy tafakkur, idrok va teran zakovatni tarbiyalab boradi.

Ustoz yozuvchilarning o‘z bolalıkları yoxud buyuk shaxslar, ulug‘ mutafakkirlar, iste‘dodli shoirlar, yozuvchilar siymosiga bag‘ishlangan qissalari bolalar adabiyoti orqali yosh kitobxonlarning badiiy-estetik saviyasi va tafakkuri, ong va idrokining rivojlanishiga muhim ta‘sir ko‘rsata oladi. Biografik metod haqida fikr yuritgan B.Karim yozuvchi va badiiy asar juftligi haqida to‘xtalib, ijodkorning shaxsiy hayoti, yashagan muhiti, ruhiy-psixologik holati, shaxsiy qiziqishlari, asarning yozilishiga turtki bo‘lgan omillarga e‘tibor berish zarurligini qayd etadi [Karim B., 2:166].

XX asr o‘rtalarida yaratilgan M.Osimning tarixiy-biografik (To‘maris, Shiroq, Ibn Sino, Ulug‘bek, Navoiy, Uvaysiy kabi ulug‘ ajdodlarimiz, allomalarimiz siymosini tarixiy manbalar asosida badiiy talqin etishi); T.Malik (“Qaldirg‘och”) va O.Muxtorning (“Uchqur poyezdlar”) biografik qissalari o‘ziga xos adabiy hodisa edi. A.Obidjon (“Ajnasi bor yo‘llar”), X.To‘xtaboyev (“Qaydasan, bolaligim”), E.Malik (“Bolalik va o‘smirlik ko‘chalari”) asarlari esa yangilanish davri adabiyotidagi *poetik tafakkur evrilishining* namunasidir.

“O‘zbek adabiyotida, – deb yozadi professor Q.Yo‘ldosh, – biografik va avtobiografik yo‘nalishda bir qator asarlar yaratilayotgani xarakterli holdir. Alohida bir odam va uning hayot yo‘liga qiziqishning ortgani millat ahlining shaxslashayotgani va ularda alohida odam taqdiri chinakam qiziqish uyg‘onayotganidan belgidir. Shuningdek, biror adabiyotda biografik yo‘nalishdagi

bitiklarning ko‘payishi o‘sha yerda odam shaxsiga e‘tibor orta boshlaganidan dalolatdir” [Qozoqboy Y., 5:10].

Haqiqatan, A.Obidjon qissasining nomlanishiyoq e‘tiborni tortadi. Umumadabiyot va bolalar adabiyotida birdek nom qozongan, shuningdek, deyarli barcha adabiy tur va janrlarda ijod qilgan shoir, dramaturg hamda adib asarlari nihoyatda boy va rang-barangdir. Bunga doir alohida tadqiqotlarning olib borilayotgani ham bejiz emas. Muallifning talay asarlari hozirgi bolalar qiziqayotgan sirli tilsimlar, g‘ayrioddiy narsalar, hodisalarga, ertaklardan davom etib kelayotgan ajina, alvasti, dev singari demonologik obrazlarning multiqahramonlariga mukkasidan ketganligini anglab, asarga shunday nom tanlaganiga amin bo‘lamiz. Ikkinchidan, yozuvchi mansub avlod bolaligi kechgan og‘ir turmush tarzi, mafkuralashtirilgan hayot so‘qmoqlarining ramziy ifodasi, tashbehlanishi tarzida ham diqqatga sazovor: “Polsiz, bo‘yra ustidan kigiz yozilgan bu uylardan yozda ham zaxning isi anqib turardi. Oldimizga ovqat qo‘yilishi bilanoq, shipdagi o‘rgimchaklar o‘zini dasturxonga tashlagudek bo‘lardi. Ba‘zan hali g‘o‘rligiga borib, odamdan hurkishni uncha o‘rganmagan sichqonchalar bir-birini quvalab o‘ta boshlardi. Qishda esa pechkaga yolchisang, ko‘mirga yolchimaysan, o‘tin yoqsang, bir lovullab isitadi-yu, yana tafti so‘nadi. Sandalning ahvoli ham shu. Qor yoki yong‘ir yog‘sa, tomdan chakka o‘tgani-o‘tgan. Suv tomchilayotgan joylarga terib qo‘yilgan turli idishlardan taralayotgan “chak-chuk”, “tiring-tiring”larga *ko‘rinmas ajinalar* o‘yin tushayotgandek...”

Shu detalning o‘zi ham kitob nomi haqida lo‘nda xulosani beradi. Asar muallifi yozuvchi bo‘lib tanilguniga qadar boshidan o‘tgan yaxshi-yomon kunlari haqidagi “og‘irchiliklarga, nohaqliklarga, qadrlanmasliklarga, ig‘vogarliklarga, hattoki, kamsitishlarga – hamma-hammasiga sabr-toqat bilan chidashing; o‘zingni goh anqovlikka, goh omilikka, goh karlikka solib yashashing; biri-biridan dag‘dag‘ador devlarning oyog‘i ostida majaqlanganicha, butkul nom-nishonsiz yo‘qolib ketmaslik uchun tirishib-burishib kuchanmog‘ing kerak bo‘ladi,” – degan fikrlari kitobxonni keng qamrovli fikrlashga undaydi...

Yozuvchi uslubidagi: “Ho ishonang, ho ishonmang, yozayotg‘onimda tirik edim” – Gulmat Shoshiy; “Og‘zingga kelganini gapiraverma, esingga kelganini yozaver” – Kulkul afandi”, – degan jumlar kitobxonda faqat tabassum emas, mushohada ham uyg‘otadi. Undan xalqona ifoda, mutoyiba bilan birga falsafiy mazmuni ham anglash mumkin. Haqiqatan, bugun adibning marhumligi nazarda tutilsa yoxud ko‘p gapirishdan ko‘ra, avlodlar uchun yuragingda borini yozib qoldirish zarurligini uqtirish, shuningdek, poytaxt va qadimiy shaharlar tarixi, ramzini anglatish istagi seziladi.

Shuningdek, asar muqaddimasidagi: “Yozsammi, yozmasammi? Yozmasam, o‘zimni o‘zimdanda haydab yashayotgandekman. Shuni his qila boshlashim bilan oq yuragim siqiladi. Yozsam, o‘zim uchun ham, ba’zi bironlar uchun ham qanchalar og‘riqli bo‘lmasin, imkon qadar borini boricha aytishimga to‘g‘ri keladi. Aks holda, bu muallaq tarvuz uzra abadiyat ummonining omonat ko‘pikchasidek kechgan hayotim bayoni tabiiylikdan chekinib, bir adibning navbatdagi to‘qimasi yuzaga keladi-yu, umr haqiqatlari ramzi sifatida idrok etilguchi “Esdalik” atalmish so‘z azaliy qimmatini yo‘qotadi... Chekdim, o‘yladim; chekdim, ikkiladim; oxiri qadrdon qalamjonim qog‘ozlar uyumi sari oshiqdi-yu o‘ng qo‘lim yetagida “boshlov”ni chizg‘ilaboq, olisdagi “tugallov” sari bilanglab yo‘rg‘alashga tushdi. Buyog‘i endi O‘ziga tavakkal”, – kabi jumladlarda bolalar adabiyoti uchun shu vaqtgacha taqiqlangan chegaralari ochila boshlaganidan dalolatdir. Ya’ni bolalar adabiyotida, avtobiografik qissada qahramonning – yozuvchining hamisha “idealligi” an’anaga aylangan edi. Ayniqsa, jamiyatda kechayotgan har qanday o‘zgarishlarga faqat ijobiy munosabatlarigina aks etib kelgan. Hayotda yo‘l qo‘ygan xatoliklari, bolalikda bo‘ladigan salbiy qusurlari, maktabda baholari hamisha ham “a’lo” bo‘lavermasligi, hattoki, o‘smirlik va o‘spirinlikda ro‘y beradigan qizlarga munosabatidagi “sir-asror”lar deyarli tilga olinmagan. A.Obidjon bu jihatdan ham o‘zining alohida yo‘lini tanlab, ta’kidlaganidek, bir o‘g‘il bolaning barcha sho‘xliklari-yu shumliklarini boshidan kechirib, voyaga yetib, yozuvchi sifatida kamol topgungacha bo‘lgan hayotini “bo‘yamay-bejamay”, ta’kidlaganidek, haqqoniy aks etiradi. Ammo bu o‘quvchiga malol kelmaydi, aksincha, har bir satrdan bolalar adabiyoti uchun muhim bo‘lgan komiklik, samimiylik va sarguzashtlarga boy bolalik olami ko‘zga tashlanib turadi. Masalan, o‘zining onasi haqida: “Yangi kelinning oti Munisxon ekan. Ana, nihoyat, men sho‘rlikka ona ham topildi. Endi asosiy gap – sog‘-salomat tug‘ilib olishimda” [Obidjon A., 4:1], – degan xalqona ifodalar tasviri o‘quvchiga xush kayfiyat bag‘ishlaydi.

Kitobxon asarni o‘qish jarayonida adib bilan yonma-yon o‘tirib, erkin so‘zlashayotgandek, his qiladi o‘zini. Ayniqsa, asarning erkinlik ruhida kamol topayotgan avlod kitobxonligidagi o‘rni e’tiborga olinsa, buning ahamiyati yanada oshadi.

Umuman, qissaning muhim qirralari haqida to‘xtalib o‘tgan Q.Yo‘ldoshev muallif obrazi va u bilan bog‘liq voqealarning asarda samimiy hamda rostgo‘ylik bilan aks etganini ta’kidlab, alohida xususiyatlarini e’tirof qiladi. Jumladan, yozuvchining onasi haqidagi xotiralari tafsiloti haqida shunday yozadi: “O‘zbek, ehtimol, o‘zi haqida ham unchalik qiynalmay rostini ayta olar, lekin onalar to‘g‘risida o‘zgalarga unchalar yoqimli ko‘rinmaydigan narsalarni yozishi juda qiyin. Chunki bizning tabiatimizda minglab yillar davomida onaga ilohiy ehtirom,

uni muhokama qilmaslik odati shakllangan. Anvar Obidjon asarida bunga bir qadar o‘zgarish kiritganday bo‘ladi. Muallif onaning ham xom sut emgan banda ekanini, unda ham muayyan nuqsonlar bo‘lishi mumkinligini ochiq tasvirlaydi” [Qozoqboy Y., 5:10]. Olim o‘z fikrini qissadagi “... jahli juda tez edi, o‘zgalar chetda pichirlashib, gaplashib turganini ko‘rsa ham, birdan gezarib qolardi, sal narsaga janjallashib ketardi, bor tovushda sannashga tushsa, birov bas kelolmasdi. Birgina dadamdan qo‘rqardi, lekin paytini topib, oilada hukmronlikni qo‘lga olishga bot-bot urinib ko‘raverardi, baribir bunga erisholmasdi... Sarviniso buvimiz ayamni unchalik xushlamasdi, bu yalangoyoq o‘ziga muncha bino qo‘ymasa, uni o‘g‘limning pullari quturtiryapti, deb g‘udranardi gohida” (8-bet) kabi lavhalar bilan asoslaydi.

Haqiqatan, A.Obidjon uslubida qahhorcha ochiqlik, haqiqatgo‘ylik namoyon bo‘lgan. “O‘tmishdan ertaklar” taqdimoti munosabati bilan “Hech bo‘lmasa otangizni ayasangiz bo‘lardi” deyilgan dashnomlarga adibning “Men otamni yaxshi ko‘raman, lekin haqiqatni undan ustun qo‘yaman” degan javobi ma’lum.

Ammo Q.Yo‘ldoshevning asar janrini “avtobiografik roman” deb aytishi mulohazali. Nazarimizda, uni “roman” deyish o‘zini oqlamaydi, chunki barcha voqealar birgina qahramon – muallif obrazi atrofida ro‘y beradi, uning bir necha yillik hayoti nazardan o‘tkaziladi. Shu sababli A.Ulug‘ov [Ulug‘ov A.,6:172], Sh.Ahmedova [Ahmedova Sh.,1:110], mulohazalarida qayd etilganidek, avtobiografik qissa, xotira-qissa deyish mazkur janr an‘analariga muvofiqligini asoslaydi. Faqat bunda badiiylikdan ko‘ra realistik lavhalar ko‘payib ketganini va yillar, raqamlar, sonlar, qaydlar hujjatli biografik qissa yoki kundaliklarga xos sinkretik janr ko‘rinishida keltirilganini, yozuvchining mahorati hamda uslubiga ko‘ra janr yumoristik jihatdan qayta yangilanganini ta’kidlash o‘rinli.

Inson o‘z bolalik va o‘smirligini umri davomida unutilmasligi oddiy haqiqat. Bu yoshdagi eng yorqin xotiralarni bir umrga eslab qolish uchun kamida ikki jihat zarur: birinchisi – xotira muallifi noyob qobiliyat egasi bo‘lib, bolalikdanoq har bir detalni kechagiday eslab qoladi va xotira qatlarida bot-bot tiklanib boradi; ikkinchisi esa bolalikdagi juda kuchli ruhiy iztirob, ijtimoiy hayot, jamiyatda ularga bo‘lgan munosabatning shiddati, ta’siri keskin yoki quvonchli-qayg‘uli voqealar iskanjasida toblanganidir. Zotan, A.Obidjon asarlaridagi avtobiografizm ham ijtimoiy hayotdagi u yoki bu haqiqatni badiiy aks ettirish asosi – bosh konsepsiyasi hisoblanadi.

E.Malik ham shu jihatdan o‘zi tengi avlod bolaligi, xususan, o‘z hayoti asosida yozgan avtobiografik hikoyalarini umumlashtirib, yaxlit bolalik qissalariga birlashtirgani e’tirofga loyiq [Malik E., 3:488]. Kitob ikki qismdan iborat: birinchi qismi “Qaylardasiz, onajon”, ikkinchi qismi “Oymoma to‘lgan kunlar” deb

nomlangan. Kitob so‘nggida uning yana davom etishi haqidagi fikr rus adabiyotida mavjud bo‘lgan dilogik, trilogik avtobiografik qissalar turkumiga mansubligini oydinlashtiradi. Shu o‘rinda, avvalo, “dilogik qissa” atamasiga diqqat qilsak. Dilogiya faqat romanga nisbatan qo‘llanilar edi. Bizningcha, bu istilohni qissaga nisbatan ham qo‘llash joiz. Bir qissadagi voqeliklar, qahramonlar taqdiri ikkinchi qissada davom etsa va ikki qissa bir butunlik hosil qilsa, ularni dilogik qissa deyish mumkin. O‘zbek adabiyotida ham bunday asarlarning mavjudligi e’tirofga loyiq.

Har bir qism ichki sarlavhalarga, mustaqil syujetli hikoyalarga ajratilishi jihatidan “O‘tmishdan ertaklar”ga yaqin turadi. A.Qahhorning bolalik hikoyalari o‘tgan asrning XX asrning 10-yillaridan 20-yillargacha davom etgan bo‘lsa, E.Malik urush davri bolalik xotiralari bilan maydonga chiqib keladi. Bu ikki asarning o‘xshash qirralari muallif obrazining o‘z bolaligi tasviridagi barcha voqealar, qalb o‘ksiklari, davr mashaqqatlarini juda yaxshi eslaydi va tizimli hikoyalarda aks ettiradi. Deyarli barcha hikoyalarda yosh qahramonning ruhiyati, voqealarga faol aralashuvi, go‘dak boshiga tushgan ko‘rguliklar realistik bayon qilinadi. Yozuvchi raqamlar, hujjatlilikdan ko‘ra qalbining eng tubida bir umr saqlangan bolalik xotiralarini juda jonli, ta’sirli, aytish mumkinki, badiiy teran aks ettira olgan. Ularning ko‘pchiligi alohida-alohida hikoya tarzida berilganda ham mustaqil kompozitsion butunlikni tashkil qila oladi. Masalan, “Chayon qovurdoq”, “Ovulda”, “Oyimni topib bering” kabilarni qissa tarkibidagi mustaqil hikoyalar deyish mumkin. Ba’zi sarlavhalar esa o‘sha faslda hikoya qilingan obrazlar nomi bilan “Omon tog‘a”, “Mujgon opa”, “O‘lmas opa”, “Tegirmonchi tog‘a” kabi atalgan. Qissadagi asosiy voqealar muallifning roviyligi orqali emas, tengqurlari, do‘stlari, o‘gay onasi, dadasi, ammasi va jamiki o‘zi bilan muloqotda bo‘lgan insonlarning fe‘l-atvori, suhbatlari –dialoglarida aks etadi.

Umuman, dilogik qissada boshdan-oyoq hikoya qilingan voqealar muallif bolaligining yaxshi-yomon kunlari, hatto ayachasi – o‘gay onasining baldog‘ini o‘g‘irlagani uchun ayovsiz jazolagani, obrezga yotqizib, ustiga chiqib olib o‘lgudek savalagani-yu, Omon amaki kabi yaxshi insonlar tufayli sog‘ qolgani, hatto bolaning qo‘rquvdan baldoqni kissasidan vokzalga tashlab yuborganida, o‘sha amaki topib, bolaning nomiga isnod keltirmaslik uchun tomdan topib oldim, zag‘izg‘onlar olib ketgan ekan deya, rahm-shafqat qilgani kabilar, avvalo, birgina go‘dak qahramonning onasini vokzalda yo‘qotib qo‘yib topa olmay, sarsonligi, onangni topib beraman degan lo‘lilarning gapiga chippa-chin ishongan yosh bolaning ayanchli ahvoligacha ta’sirchan, badiiy bo‘yoqlarda tasvir etilishi asarning o‘qimishlilikini ta’minlagan. Bularning barchasida yozuvchi maqsadi yosh avlodga bugunning qadriga yetmoq uchun kechagi kun tarixi, ota-bobolari boshidan

kechirgan mashaqqatlarini his qilishga qaratilgan bo‘lsa ham, avtobiografik qissalardagi poetik detal, makon-zamonning kengligi, qahramonlarning yosh va son jihatdan ko‘pligi, hatto qardosh xalqlar obrazlari yorqin chizilgani kabilar janriy takomil tadrijini namoyon qiladi. Qissada yetimlik, o‘gaylik, yolg‘izlik motivlari ohorli voqealar tafsilotida namoyon bo‘ladi. Janr takomilidagi novatorlik ham aynan shu kabi yangi voqelik, yangi talqinlarning paydo bo‘lishida ko‘rinadi, deyish mumkin. Qissada tirik yetimlikning azobi tag‘inda og‘irligini asar qahramoni boshidan kechirgani uchun onasini adashtirib qo‘yib, yillar davomida uni topolmay, har kuni umid bilan kutishi, diydasi tosh qotgan otasining esa o‘z farzandiga o‘gay onaning qahr-g‘azabi, minnatu-xo‘rlashidan tashqari, zamona zayli bilan o‘z farzandiga bir itga rahm qilganchalik shafqat ko‘rsatmasligining nadomati ufurib turadi.

Ko‘rinadiki, E.Malikning bolalik olamiga munosabatida o‘z qarashlari mavjud. Uning eshitgani shuki, donolar hayotni bejiz oqar daryoga o‘xshatishmagan. Ana shu daryoning esa ikki qirg‘og‘i bor: biri – bolalar bo‘lsa, ikkinchisi – keksalardir. Biri hayotdan ketib boradi, ikkinchisi dunyoga kelib, ularning o‘rnini to‘ldiradi. Lekin har ikkala qirg‘oq ham zaif, yordamga muhtoj... Biri g‘o‘r bolalik tufayli hech narsaga qodir bo‘lmasa, ikkinchisi, keksaligi, jismoniy kamquvvatligi uchun jamiyatda ojiz... Qissada ana shu ikki olam vakillari eng ko‘p uchrashining sababi, ehtimol, shundadir.

O‘zbek bolalar adabiyotida X.To‘xtaboyevning “Qaylardasan, bolaligim” deb nomlangan to‘plamida ham janriy sinkretlikning yanada xilma-xilligi ko‘zga tashlanadi. Ushbu to‘plamga kirgan qissa va hikoyalar, ertaklarning janriy, kompozitsion, badiiy xususiyatlari mustaqil tadqiqotga loyiq. Aytmoqchi bo‘lganimiz, ularda avtobiografizm yangicha usulda aks etgan. Endi bunda muallif obrazi alohida-alohida hikoyalarning qahramonlariga singib ketgan. Hikoya va ertaklar badiiy-fantastik detallar bilan to‘yintirilgan bo‘lsa ham, ba‘zan makon (katta Tagob), obrazlar (Orif chol, Hafizaxon,) timsolida o‘zi, oyisi va bobosi, ukalari haqidagi lavha ekanligi oydinlashadi (masalan, “Orif cholning o‘rikzori” kabi). To‘plamga kirgan hikoyalar haqida S.Matjon shunday deydi: “Taqdim etilayotgan har bir asar X.To‘xtaboyevning bolalik yillari, bolalik orzulari, bolalik sevinchlari, bolalik sog‘inchlari haqida so‘zlaydi” [To‘xtaboyev X. 7:222].

Umuman, qariyb bir asr ilgari bolalar adabiyotidan keng o‘rin olgan avtobiografik qissalar yangi mualliflar, kompozitsion va ifoda usullarining xilma-xilligi jihatidan takomillashib, yangilanib borishda davom etmoqda. Avtobiografizm shu ma‘noda asarda muallifning biografiyasiga tegishligina emas, balki asarning asosiy konsepsiyasini belgilovchi usul bo‘lib maydonga chiqayotganligi anglashiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Ahmedova Sh. Xotiralarda adib qiyofasi: O‘zbekiston xalq shoiri Anvar Obidjon tavalludiga 70 yil. – T., 2017. – B.110.
2. Karim Bahodir. Ruhiyat alifbosi. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot va matbaa ijodiy uyi, 2016. – B.166.
3. Malik E. Bolalik va o‘smirlik ko‘chalari. – Toshkent: O‘qituvchi, 2019. – B.488.
4. Obidjon Anvar . Ajinasi bor yo‘llar. (Turmush kechinmalari). – T.: O‘zbekiston, 2016. – B.1. <https://saviya.uz/>
5. Qozoqboy Yo‘ldosh. O‘zlik sari yo‘l. O‘zbekiston xalq shoiri Anvar Obidjon tavalludiga 70 yil. – Toshkent, 2017. – B.10.
6. Ulug‘ov A. Inson hayoti ma’nosi (2014-yil qissalarini o‘qib...). – Sharq yulduzi. – Toshkent, 2015. –№.1 – B.172.
7. To‘xtaboyev X. Qaylardasan bolaligim. – T.: Yangi asr avlodi, 2019. – B.222.